

INKLYUZIV TA'LIMNING TIBBIY – PEDAGOGIK – IJTIMOIY MODELI.

Xolmatova Marjona Dilshod qizi, JDPU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'larning tibbiy ,pedagogik va ijtimoiy modellari batafsil yoritilgan.Tibbiy model maxsus ehtiyojga ega bolalarning jismoniy va psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib ,reabilitatsiya , fizioterapiya va maxsus tibbiy xizmatlarni o'z ichiga oladi.Pedagogik model esa ta'lim jarayonida individual yondashuvni joriy etish ,maxsus pedagoglarni tayyorlash va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ijtimoiy model esa jamiyatda inklyuziya madaniyatini shakllantirish , ota-onalar bilan ishlash va maxsus ehtiyojga ega shaxslarning bandligini ta'minlashga asoslangan. Jahon tajribasi va O'zbekiston sharoitida ushbu modellarni joriy etish bo'yicha muhim jihatlar tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar : Inklyuziv ta'lim , tibbiy model , pedagogik model, ijtimoiy model , maxsus ehtiyoj , maxsus pedagogika , differensial yondashuv , moslashtirilgan ta'lim , integratsiya.

Abstract: Medical , pedagogical and social models of inclusive education are covered in detail in this article. The medical model focuses on supporting the physical and psychological development of children with special needs and includes rehabilitation , physiotherapy and special medical services. The pedagogical model expands children 's learning opportunities by introducing an individual approach to the educational process , training special pedagogues , and using innovative technologies. The social model is based on creating a culture of inclusion in the society , working with parents and ensuring employment of persons with special needs. The world experience and the important aspects of the introduction of these models in the conditions of Uzbekistan are analyzed , suggestions and recommendations are given.

Keywords: Inclusive education, medical model, pedagogical model, social model, special needs, special pedagogy, differential approach, adapted education, integration.

Абстрактный: В статье подробно рассматриваются медицинская, педагогическая и социальная модели инклюзивного образования. Медицинская модель направлена на поддержку физического и психологического развития детей с особыми потребностями и включает реабилитацию, физиотерапию и специализированные медицинские услуги. Педагогическая модель расширяет возможности обучения детей за счет внедрения индивидуального подхода к образовательному процессу, подготовки специальных педагогов и использования инновационных технологий. Социальная модель основана на

создании культуры инклюзивности в обществе, работе с родителями и обеспечении занятости людей с особыми потребностями. Проанализированы важные аспекты внедрения данных моделей в контексте мирового опыта и Узбекистана, даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, медицинская модель, педагогическая модель, социальная модель, особые потребности, специальная педагогика, дифференцированный подход, адаптированное образование, интеграция.

Kirish

Inklyuziv ta'lismi bu barcha talabalar, shu jumladan, nogironligi bo'lgan yoki o'ziga xos ehtiyojlari bor bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ta'lismi tizimi. U har bir individning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ta'lismi jarayonida barcha ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Inklyuziv ta'lismi barcha bolalarning teng huquqli ta'lismi olishini ta'minlashga yo'naltirilgan tizim. Bunday ta'lismi modeli nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari ehtiyojlari bo'lgan bolalarni umumiyligi muhitiga qo'shishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lismi asosiy yondashuvlaridan biri tibbiy – pedagogik – ijtimoiy modeldir, bu uch asosiy yo'naliishning integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu maqola mazkur modelning samaradorligini tahlil qiladi va uning amaliy qo'llanilishida duch kelinayotgan muammolarni olib beradi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida inklyuziv ta'lismi qo'llash borasida turli tajribalar yig'ildi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning Ta'lismi, Fan va Madaniyat tashkiloti (UNESCO) inklyuziv ta'lismi qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng qamrovli dasturlar ishlab chiqmoqda. Shuningdek, ko'plab mamlakatlarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta'lismi turli modellarini yaratish va tatbiq etish yo'naliishida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Tibbiy yondashuv - Nogironlikka ega bolalarni maxsus tekshiruvdan o'tkazish va individual reabilitatsiya rejalarini ishlab chiqish orqali ularning ta'limga tayyorgarligi yaxshilanadi. Ko'plab maktablarda defektolog va logopedlar yetishmovchiligi mavjud. Reabilitatsiya markazlari bilan maktablar hamkorligining samaradorligi ta'lismi sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Psixologik yordam va tibbiy qo'llab-quvvatlash xizmatlarining mavjudligi bolalarning o'qish natijalariga ijobiy ta'sir qilmoqda. Pedagogik yondashuv-Moslashhtirilgan o'quv rejalarining mavjudligi bolalarning bilim olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarining inklyuziv ta'lismi metodikalarini bilish darajasi turlicha bo'lib, bu natijalarga ta'sir qiladi. Maxsus ta'lismi metodikalaridan foydalanish dars jarayonining samaradorligini oshiradi. Individual yondashuv asosida o'qitilayotgan o'quvchilar standart usul bilan o'qitilayotgan o'quvchilarga nisbatan yuqori natijalarga erishmoqda. Ijtimoiy yondashuv-Jamiyatning inklyuziyaga bo'lgan munosabati o'quvchilarning integratsiyasiga

bevosita ta'sir qiladi. Ota-onalarning farzandlari uchun moslashuv jarayoniga jalb etilishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Jamiyatdagi stereotiplarga qarshi targ'ibot ishlari natijasida ijtimoiy qabul darajasi oshmoqda. Ijtimoiy xizmatlar va nodavlat tashkilotlarning qo'llab-quvvatlashi inklyuziv ta'lim tizimini yanada samarali qilishga yordam bermoqda.

Xulosa: Inklyuziv ta'limning tibbiy-pedagogik-ijtimoiy modeli nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur model ta'limning samaradorligini oshirish, jamiyatning inklyuziyaga bo'lgan munosabatini yaxshilash va bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Mengliyev , B. (2022).PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A MODERN PHYSICAL EDUCATION TEACHER : Science and innovation, 1 (B7) , 554-556.
2. Booth, T., & Ainscow, M. (2011). The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education.
3. Florian, L. (2014). The SAGE Handbook of Special Education. London: SAGE Publications.
4. Slee, R. (2018). Inclusive Education: From Policy to Practice. London: Routledge.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2020). O'zbekistonda Inklyuziv Ta'limni Rivojlantirish Strategiyasi. Toshkent.
6. Mittler, P. (2012). Working Towards Inclusive Education: Social Contexts. London: David Fulton Publishers.